
Bugun – O‘zbek tili bayrami kuni

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2020 yil 10 apreľ kuni imzolangan "O‘zbek tili kunini belgilash to‘g‘risida"gi qonunga binoan, 21 oktyabr O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

Xalqimiz uchun qadrlı va ulug‘ ushbu kun munosabati bilan o‘zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiyning Farg‘ona shahridagi haykali yonida bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda viloyat hokimligi, viloyat boshqarma va tashkilotlari, ta‘lim muassasalari hamda keng jamoatchilik vakillari, yozuvchi va shoirlar, yoshlar ishtirok etdilar.

Bayram tadbirida ochib bergan viloyat hokimining o‘rinbosari Fayzullo Qosimov, ona tilining inson hayotida tutgan o‘rni, yurtimizda til masalasida olib borilayotgan davlat siyosati, so‘nggi yillardagi mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish, uning hayotimizdagi o‘rni va ta‘sirini oshirish borasidagi ishlar to‘g‘risida so‘z yuritdi.

Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo‘yildi, tadbir davomida o‘zbek tilini ulug‘lovchi she‘rlar yangradi.

Joylarda O‘zbek tili bayrami tantanalari davom etmoqda.

2022-10-25 16:41:05